



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№1
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 326 sahifa,
5-yanvar, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Talabalarda tolerantlikni shakllantirish zarurati va samaradorligi.....	28
Bafayev Muxiddin Muxammadovich	
Muhandislik grafikasi bo'yicha raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda grafik dasturlardan foydalanish metodikasini yaratish	34
Axmatova Asila Akmaljon qizi	
Investigation on the Efficacy of Pedagogical Approaches in Virtual Learning	37
Burkhonova Zarafuz Qobilovna, Makhmudov Shaxboz Muzzafarovich	
The Role of Input And Interaction in Second Language Acquisition.....	40
Dilorom Poyonova	
Muhandislik yo'nalishida kartografiya fanini integratsiyalashgan holda o'qitish	45
Kazakbayeva Muxabbat Turabayevna	
Incorporation of Moocs Into the Digital Educational Framework for the Development of Professional Speech Culture.....	49
Kudrat-Zoda Kamola Alisherovna	
Pedagogical Strategies for Enhancing Students' Creative Thinking Throughout the Learning Process	52
Makhmudova Ugliy Baxtiyarovna	
Kognitiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning media savodxonligini rivojlantirish	57
Mirzayeva Mayramxon Zaynobiddinova	
Transformatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirish.....	61
Mirzayeva Ziyoda Uktamjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish	65
Qurbonboyeva Gulnoza Mahmud qizi	
An Online Service that Integrates Up-To-Date Content From Well-Known Mooc Platforms	68
Rakhimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Abdurahmonova Osiyo Jahongirovna	
The Fourth Phase of Distance Education: Integrated Technologies and Moocs	71
Rahimberdiyev Rustam Abdunasirovich, TaranenkoTatyana Viktorovna	
Gamifikatsiya orqali iqtidorli o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshirish	74
Rustamova Manzura Mirkamolovna, Xaytbayeva Malika Qobil qizi	
Boshlang'ich ta'lim fanlarini didaktik o'yinlar orqali tushuntirish	77
Rustamova Manzura Mirkamolovna, Shomaxsudova Diyora Dilshod qizi	
O'smirlar orasida alkogolizm, giyohvandlik va toksikomaniya profilaktikasi	80
Sh. F. Mustafayeva	
Educational Physics Experiments: Methods and Didactic Strategies for Developing Critical Thinking in Students	85
Turayev Alimjan Bahriddinovich	
The Problems of Remote Learning Technology and Global Trends in University Education Development.....	88
Tursunov Begzod Sherzodovich, Shukurova Madina	
A Case Study of Humanities Disciplines Using Massive Open Online Courses as a Resource for Blended Learning	91
Tursunov Begzod Sherzodovich, Eshkabilov Kodirali Davlatmuratovich	
Modern Education and Training Practices for Future Dentists	94
Turumova Marjona Bahodirovna	
Kommunikativ yondashuv asosida nutqiy kompetensiyani shakllantirish.....	98
Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna	



Maktabgacha ta'lim jarayonida mutaxassislik fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar: amaliy muammolar va ularning innovatsion yechimlari	102
<i>Xabibulayeva Shaxrizoda O'ktam qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarda nutq o'stirish darslari orqali Soft Skills ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy pedagogik psixologik asoslari	106
<i>Xoldarova Mubina Qudratbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhit va uning turlari	110
<i>Xolmirzayeva O'g'iloy Murotali qizi</i>	
Развитие компетенций студентов-биологов в изучении языков	114
<i>Абдуллаева Нигора Курбановна</i>	
Формирование интереса и повышение эффективности школьного урока физической культуры	118
<i>Мукимов Олим Эргашевич</i>	
Incorporation of Massive Open Online Courses Into the Higher Education Framework	122
<i>Rakhimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Nasrullayev Javlonbek Tal'atjonovich</i>	
Совершенствование инновационной методики социально-педагогической деятельности будущих педагогов в полилингвальной среде с использованием искусственного интеллекта	125
<i>Хужаниязова Гузаль Юлдашевна</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini xalq og'zaki ijodi asosida rivojlantirish	130
<i>Abduraximova Muxabbat Allayevna</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'rganiladigan nostandart masalalar	133
<i>Karimova Kunduz Ruzibayevna, Yo'ldosheva Tojigul Ulug'bek qizi</i>	
Video-marketingning iste'molchilar jalb qilinishiga ta'siri: Tiktok va Youtube misolida.....	138
<i>Rustamova Ma'mura Asqar qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv jarayonlarini diagnostika qilish	141
<i>Shorustamboyeva Shahnoza Ulug'bekovna</i>	
The use of Visualization Technology as a New Trend in Teaching the English Language	144
<i>Tursunoy Ortiqova</i>	
Didaktik drama asosida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda narrativ yondashuvning asosiy tushunchalari tahlili	149
<i>Xolbayeva Dildora Azizovna, Sadiyeva Shaxnoza Xusanovna</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini o'qitishda work-based learning metodikasini qo'llash ..	153
<i>Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi</i>	
Bo'lajak shifokorlarni tibbiy amaliyotga tayyorlash metodikasini takomillashtirish.....	156
<i>Murtazayeva Nasiba Komiljonovna</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish	159
<i>Xusnidinova Saodat</i>	
Muloqot madaniyati asosida liderlik fazilatlarini shakllantirishning samarali usullari	163
<i>Djumayeva Dildora Isroilovna</i>	
Integrating Quizlet, Kahoot, and Padlet Into Vocabulary Instruction: An Experimental Study With Undergraduate Philology Students.....	167
<i>Inoyatova Umida Boxadir qizi</i>	
Advantages and Disadvantages of Teaching Students Via Competent Based Approach in Order to Improve Their Listening and Speaking in Finland	171
<i>Abdukhakimova Kamola Akmalovna, Rahmatova Mohijahon Ahmad qizi</i>	
Kimyo ta'limida iqlim o'zgarishlariga oid ilmiy ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirish	175
<i>Akbarova Saidaxon Rustamovna</i>	
Tibbiyot oliy ta'limida pediatriya talabalari klinik fikrlashini rivojlantirishda muammoli ta'lim metodlarining roli.....	180
<i>Atadjanova Shaira Xalilovna, Umarkulov Muxtorali Islomkulovich</i>	

Individual ta'lim muhiti asosida bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kasbiy-metodik tayyorlashni takomillashtirish.....	185
<i>Azamatova Dildora Shuxrat qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim-tarbiya tizimida raqamli ta'limni joriy etishning innovatsion yondashuvlari va samaradorlik omili.....	189
<i>Babayeva Dilnoz Xaydarovna</i>	
O'qish savodxonligini oshirishda xalqaro tadqiqotlarning o'rni (PISA va PIRLS)	192
<i>Barakayeva Shahnoza Fazliddin qizi</i>	
Yosh rahbarlarda boshqaruv stressining namoyon bo'lishi va boshqaruv faoliyatiga moslashuv muammolari: ta'lim tizimi sharoitida psixologik holat tahlili.....	195
<i>Djavgarova Dilfuza Shuxrat qizi</i>	
Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlardan foydalanish asosida oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirish strategiyalari.....	199
<i>Duvlayeva Nozigul Xolmuxammad qizi</i>	
Enhancing English Learners' Pronunciation Through AI-Based Language Applications.....	203
<i>Egamova Munisa Khakim kizi</i>	
Maktab ta'lim tizimining dars jarayonlarida elektron qo'llanmalardan samarali foydalanish.....	208
<i>Kodirov Akbar Shuxratovich</i>	
Improving the Methodology of Teaching Biochemistry in Medical Higher Education Institutions Through Virtual Laboratory Tools	213
<i>Mamadaliyeva Zarina Rakhmat kizi</i>	
O'smirlarda kommunikativ tolerantlik muammosining nazariy-metodologik asoslari.....	218
<i>Mirsidikova Aziza Mirvohidovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining sog'lom turmush tarzini tashkil etishning nazariy asoslari	221
<i>Muxtorova Xusnidaxon Abdug'oprovna</i>	
Improving the Theoretical and Methodological Foundations for Integrating Generative Artificial Intelligence Technologies Into English Language Teaching in Higher Education	226
<i>Nigmatova Nozimakhon Ulugbek kizi</i>	
Maktabgacha ta'lim va oila hamkorligi: zamonaviy yondashuvlar va ilmiy asoslar.....	229
<i>Omondavlatova Diyora Otabekovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida iqtidorli talabalarning ilmiy va ijodiy kompetensiyalarini aniqlashga yo'naltirilgan axborot tizimini yaratish	233
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Ro'zimatova Saidaxon Abdivoxiid qizi</i>	
O'quvchilarni o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash pedagogik muammo sifatida.....	237
<i>Qodirqulov Nodirbek Hamroqul o'g'li</i>	
Oliy ta'lim tizimida talaba-qizlarning kasbiy, madaniy va kommunikativ faoliyatlarini samarali tashkil etish	242
<i>Qurbonova G. M.</i>	
Kasbiy tayyorgarlik jarayonida refleksiv yondashuvning metodologik asoslari	245
<i>Raxmatova Shaxnoza Oybek qizi</i>	
Inkluziv ta'limda pedagogik diagnostika: maxsus ehtiyojli o'quvchilarning o'quv yutuqlarini baholash	248
<i>Norqobilova Rayxona Davlatovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari.....	252
<i>Saidova Nigora Olimovna, Jo'rayeva Nilufar Rustamjon qizi</i>	
Pedagogical Strategies for Enhancing Students' Creative Thinking Throughout the Learning Process	254
<i>Shaymatova Aziza</i>	
Dasturiy-metodik majmuani ishlab chiqish bosqichlari hamda pedagogik talablar.....	259
<i>Soliyeva Gavharoy Yodgorjon qizi</i>	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda pedagogik metod va o'yinlarning samaradorligi	265
<i>Suyarova Orzigul Sodiq qizi</i>	



Yoshlarni nikohga tayyorlashda shaxsiy omillar va psixologik yetuklik.....	269
To'xtamatova Nargizaxon Abdullayevna, Buranova Sevara Sa'dullayevna	
O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimida rahbarlarning liderlik kompetensiyalarining hozirgi holatini diagnostika qilish	273
Taylakova Dilnoza Norbekovna, Latifova Mavjuda Xurramovna	
Ta'limga o'qib tushinishni sun'iy intellekt bilan integratsiya qilish imkoniyatlari va pedagogik strategiyalari.....	276
Umarov Bahrom Norboyevich	
Talabalar mobilligi jarayonida pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari.....	281
Xabibullayev Alimardon Xidoyatillayevich	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning roli va ahamiyati.....	286
Yo'ldosheva Iqbol Bekbo'lsin qizi	
Boshlang'ich sinflarda chet tilini o'rganishning ahamiyati va undagi zamonaviy yondashuvlar	289
Yoqubjonova Mohlaroyim Abdumalik qizi	
O'smir shaxsida refleksiyani shakllanishida ota-ona munosabatlarning ta'siri	292
Yulchiboyeva Dilfuza Ergasheva	
Boshlang'ich ta'limda geymifikatsiya orqali til kompetentligini rivojlantirish.....	297
Zakirova Sohila Muxtoraliyevna, Nurmuhamedova Dilshoda Zaynobiddin qizi	
Профессиональная этика педагога высшего учебного заведения	302
Журабекова Хабиба Мадаминовна	
Ортодонтியда миотерапиya: миогимнастик дентоальвеоляр apparatlarni qo'llashning taqqoslama tavsifi	305
Tursunov Begzod Sherzodovich, Sayfulayeva Aziza Anvarovna	
Музейная педагогика на уроках воспитания в средней школе: методика включения музейных практик в процесс обучения и воспитания подростков	308
Умрихина Виктория Игоревна	
21st Century Dental Innovation Technologies: An Overview	314
Khojimurodov Burkhon Ravshanovich	
Цели и задачи педагогических систем, основанных на конструктивизме в общеобразовательных школах	317
Шарипова Шахноза Шавкат кизи	
Способы повышения мотивации учащихся при изучении русского языка.....	321
Эшонкулов Хамрокул Маматкулович	

MAKTAB TA'LIM TIZIMINING DARS JARAYONLARIDA ELEKTRON QO'LLANMALARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Kodirov Akbar Shuxratovich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

“Matematika va ta’limda axborot texnologiyasi” kafedrası

katta o'qituvchisi

ORCID: 0000-0002-3656-5770

Annotatsiya: Ushbu maqola maktab ta'lim tizimi dars mashg'ulotlari jarayonida elektron qo'llanmalardan samarali foydalanish masalalarini tahlil qiladi. Zamonaviy ta'limda elektron resurslar o'quvchilarning bilim darajasini oshirishda muhim rol o'ynaydi, chunki ular ta'lim jarayonini interaktiv va qiziqarli tashkil etish imkonini beradi. Maqolada elektron qo'llanmalar yordamida o'quvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshirish, individual o'rganish jarayonini qo'llab-quvvatlash hamda o'qituvchilarga darslarni yanada samarali tashkil etish imkoniyatlarini yaratish masalalari yoritiladi.

O'qituvchilarning darsga tayyorgarligi va innovatsion metodlardan foydalanish darajasiga qarab ularni rag'batlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Maqolada ota-onalarning ta'lim jarayonidagi ishtirokini kuchaytirish, bu orqali bolalarning o'qish jarayonini yanada muvaffaqiyatli tashkil etish imkoniyatlari muhokama qilinadi. Bundan tashqari, innovatsion pedagogik metodlarni joriy etish zarurligi ta'kidlanadi. Ota-onalar uchun onlayn platformalar va resurslar yaratish ularning bolalarga yordam berish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: elektron qo'llanmalar, ta'lim tizimi, innovatsion metodlar, interaktiv ta'lim, ta'lim sifati, resurslar, onlayn platformalar, tadqiqotlar, ta'lim jarayonini takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalar, individual o'rganish.

Abstract: This article analyzes the effective use of electronic learning materials in school education classes. In modern education, electronic resources play an important role in improving students' knowledge levels, as they enable the educational process to be more interactive and engaging. The article explores opportunities to increase students' interest in learning through electronic guides, support individualized learning processes, and enable teachers to organize lessons more effectively.

It also emphasizes the importance of preparing teachers for lessons and motivating them based on their level of engagement with innovative teaching methods. The study discusses ways to strengthen parental involvement in the educational process, which contributes to more successful learning outcomes for students. In addition, the necessity of implementing innovative pedagogical methods is highlighted. The development of online platforms and resources for parents serves to enhance their ability to support children's learning.

Key words: electronic learning materials, education system, innovative methods, interactive learning, quality of education, resources, online platforms, research, improvement of the educational process, modern technologies, individualized learning.

Аннотация: В данной статье анализируется эффективное использование электронных пособий в процессе проведения уроков в системе школьного образования. В современном образовании электронные ресурсы играют важную роль в повышении уровня знаний учащихся, поскольку позволяют сделать учебный процесс интерактивным и увлекательным. В статье рассматриваются возможности повышения интереса учащихся к обучению с помощью электронных пособий, поддержки индивидуального образовательного процесса, а также создания условий для более эффективной организации учебных занятий учителями.

Особое внимание уделяется вопросам подготовки учителей к занятиям и их мотивации в зависимости от уровня использования инновационных методов обучения. Также анализируются возможности усиления участия родителей в образовательном процессе, что способствует более успешной организации обучения детей. Кроме того, подчеркивается необходимость внедрения инновационных педагогических методов. Создание онлайн-платформ и ресурсов для родителей расширяет их возможности по оказанию помощи детям в процессе обучения.

Ключевые слова: электронные пособия, система образования, инновационные методы, интерактивное обучение, качество образования, ресурсы, онлайн-платформы, исследования, совершенствование образовательного процесса, современные технологии, индивидуальное обучение.



KIRISH

Yurtimizda maktab ta'lim tizimi uzluksiz ta'lim tizimining dastlabki bo'g'ini bo'lishi bilan birga, keyingi ta'lim bosqichlarida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda barkamol avlodni tarbiyalashda intellektual salohiyatni ro'yobga chiqarish va ularni har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida voyaga yetkazish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Chunki jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk shaxslargina buyuk kela-jakni yaratadi. Xalqimizning boy madaniyati, rivojlanayotgan iqtisodiyoti, fan-texnika va texnologiya sohasida erishilgan yutuqlari asosida mutaxassislar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish Vatanimiz rivojlantirish taraqqiyotining muhim shartidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-apreldagi PQ-147-son qaroriga muvofiq Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ushbu tizimni chuqur tahlil qilib, shu paytgacha nazardan chetda qolgan eng kichik jihatlarigacha e'tibor qaratdi [7].


Bugungi kunda ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlari va o'quv-tarbiyaviy rejalariga qo'yilgan davlat talablarini takomillashtirish bilan bir qatorda, ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan farzandlarimizni har tomonlama yetuk, komil inson qilib tarbiyalash zarurligi alohida ta'kidlandi. Shuningdek, ta'lim tashkilotlarini qo'yingki, hayotimizning barcha jarayonlarida hujjat ishlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)siz amalga oshirib bo'lmaydi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga bo'lgan qiziqish va e'tibor kundan kunga kuchayib borayotgani hech kimga sir emas. Ta'lim tashkilotlarida axborot texnologiyalaridan foydalanish axborotli jamiyatning jadal rivojlanishiga xizmat qilishi, bolalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Bu texnologiyalar haqiqiy narsa va hodisalarning rangini, harakatini hamda tovushini qayta yaratishga imkon berib, o'quvchilarning qobiliyatlarini kengroq ochishga yordam beradi va ularning aqliy faoliyatini faollashtiradi.

Zamon rivojlanishi natijasida kundalik hayotimizga turli xil innovatsion texnologiyalar va gadjetlar kirib kelmoqda. Ular yildan-yilga mukammallashib, inson hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda, texnologiyalarsiz bir kunini ham tasavvur qila olmaydigan insonlar mavjudligini ham inkor etib bo'lmaydi. Ta'lim jarayonini innovatsion texnologiyalar bilan boyitish o'qitish sifatini oshirishga, uni qiziqarli va rang-barang qilishga xizmat qiladi va hozirda deyarli har bir o'qituvchi ulardan foydalanmoqda. Shu o'rinda elektron darsliklarga to'xtalib, ularning yutuq va kamchiliklarini ko'rib chiqish muhimdir. Elektron darsliklar maxsus qurilma yoki dasturiy ta'minotlar jamlanmasi bo'lib, an'anaviy ta'lim jarayonida qo'llaniladigan qog'oz darsliklar o'rnini bosadi. Bugungi kunda elektron kitob tushunchasiga turlicha ta'riflar berilmoqda: ayrim manbalarda ular an'anaviy qog'oz kitoblarning elektron ko'rinishi sifatida izohlanadi, boshqalarida esa matnlardan tashqari ta'lim oluvchilarga taqdim etiladigan ta'limiy multimedia materiallari hamda markaziy manba tomonidan yangilanib turuvchi, bilimlarni nazorat qiluvchi interaktiv blokka ega murakkab dasturlar majmuasi sifatida ta'riflanadi. Elektron darsliklarning so'nggi nashrlari ustida doimiy ravishda qayta ishlash jarayonlari olib borilayotgani sababli zamonaviy elektron darsliklar asosan tasvirli matnlardan iborat bo'lmoqda. Ko'plab o'qituvchilar elektron darsliklarning o'quvchilar tomonidan oson qo'llanilishi, texnik qurilmalar yordamida fanga bo'lgan qiziqish va motivatsiyaning ortishi, mashg'ulot jarayonida hamda uy sharoitida ulardan maroq bilan foydalanilayotgani haqida ta'kidlaydilar. Natijada o'quvchilar o'z qobiliyati va qiziqishiga mos ravishda mustaqil bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Elektron adabiyotlar yaratishning ilmiy-uslubiy jihatlarini ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilmoqda. Shu bois yaqin kelajakda ta'lim tizimida elektron darsliklardan foydalanish oddiy darsliklar kabi kundalik ehtiyojga aylanishi kutilmoqda [3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy texnologiyalar asrida nafaqat texnika va texnologiyalarning jadal rivojlanayotganini ko'rishimiz mumkin, balki ta'lim tizimida ham bu borada keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bunga masofaviy ta'lim, elektron dars o'tish, video, multimedia va boshqa zamonaviy vositalarni misol qilib keltirish mumkin. Elektron qo'llanmalardan foydalanib dars o'tish barcha o'quvchilar faoliyatida yangi talablar va qulayliklarga ega bo'lgan tizim hisoblanadi. Masalan, umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida matematika darslarida o'quvchilarga berilgan misollarni oson tushunishlari va tasavvur etishlari uchun mavzuga mos holda tayyorlangan elektron qo'llanmalar samarali natijalar beradi.

Masalan, 2-sinf matematika darsliklaridan quyidagi misolni keltirish mumkin: uydan maktabgacha 75 qadam. Gulnoza maktabga qarab 10 qadam yurgandan keyin kitobi uyida qolganini esladi. Kitobni olgach, u qaytib maktabga ketdi. Gulnoza hammasi bo'lib necha qadam yo'l yurgan?



1-rasm: Berilgan masalaning grafik ko'rinishi

Mazkur masalaning o'quvchilarga video yoki animatsiya ko'rinishida taqdim etilishi ularning berilgan misollarni ishlash jarayonida qulayliklar yaratadi hamda tasavvurlarini kengaytiradi. Elektron dars o'tishning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u tinglovchilarga zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan axborot resurslaridan foydalangan holda zarur bilimlarni mustaqil ravishda egallash imkoniyatini beradi. Bu esa o'qituvchilar uchun kerakli ma'lumotlarni tushuntirish va o'rgatish jarayonini yengillashtiradi hamda mashg'ulot va o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

An'anaviy doska va bo'r yordamida o'qitish usulidan farqli ravishda, elektron ta'lim o'quvchilarning shaxsiy qulayliklari va individual talablariga mos holda tashkil etiladi, chunki ular bilimlarni o'zlariga qulay vaqtda hamda sur'atda o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar [4]. Maktab ta'lim tizimida elektron qo'llanmalardan samarali foydalanish masalasi bo'yicha tahlil qilingan adabiyotlar bir nechta asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi. Jumladan, zamonaviy ta'lim texnologiyalariga oid ilmiy maqolalarda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'qitish jarayonini yengillashtirish hamda o'quvchilarning bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali qilish imkoniyatlari yoritiladi. Onlayn platformalar, dasturlar, videodarslar, grafik va boshqa ko'rgazmali vositalar ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, pedagogik tadqiqotlar o'qitish samaradorligini oshirishda elektron qo'llanmalardan foydalanish tajribasini ilmiy asosda o'rganishga qaratilgan. Bunday tadqiqotlar ta'lim jarayonini tahlil qilish, rivojlantirish, o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash usullarini takomillashtirish hamda mavjud muammolarni aniqlab, ularni bartaraf etish yo'llarini belgilash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari asosida ta'lim jarayoniga innovatsiyalar joriy etilib, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish choralari ishlab chiqiladi.

Interaktiv ta'lim resurslari esa o'quvchilar va o'qituvchilarni faol jalb qiladigan, o'zaro muloqotni ta'minlaydigan ta'lim materiallari va vositalari hisoblanadi. Bunday resurslar yordamida o'quv jarayonini jonli va qiziqarli tashkil etish, o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasini oshirish mumkin. Interaktiv ta'lim resurslariga ta'lim platformalari, multimedia darsliklari va ilovalari, ta'lim o'yinlari hamda test topshiriqlari kiradi. Ushbu resurslar orqali o'quvchilar masofadan ta'lim olishlari, video, animatsiya, audio va slayd-shou kabi elementlarni o'z ichiga olgan elektron qo'llanmalar yordamida mavzularni aniq va oson tushunishlari mumkin. Bundan tashqari, Quizlet, Google Forms kabi vositalar orqali mavzuga oid test topshiriqlarini qiziqarli va samarali bajarish imkoniyati yaratiladi hamda o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi va faolligi oshiriladi.

TADQIQOT VA METODOLOGIYASI

Ushbu mavzuni o'rganish uchun quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llaniladi.

Tahliliy metod: o'quv jarayonidagi elektron qo'llanmalarining samaradorligini tahlil qilish maqsadida mavjud ilmiy-adabiyotlarni o'rganish va taqqoslashga asoslanadi. Ushbu metod muammolarni aniqlash, ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayonlarini takomillashtirish hamda o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Tahliliy metod yordamida ta'lim jarayonini chuqur tahlil qilish, olingan natijalarni baholash va ular asosida ta'lim jarayonlarini optimallashtirish imkoniyati yaratiladi. O'quvchilarning bilim darajasini baholashda test natijalari, chorak baholari, qobiliyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlari tahlil qilinadi. Bu esa ta'lim jarayonida har bir o'quvchiga individual yondashish hamda o'quvchining o'ziga mos uslubda ta'lim olishini ta'minlaydi. Ta'lim tizimida tahliliy metoddan foydalanish nafaqat mavjud muammolarni aniqlash va ularning sabablarini tushunish, balki ushbu muammolarni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish imkonini ham beradi. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida yangiliklarni sinovdan o'tkazish va ularning samaradorligini baholash orqali eng maqbul va samarali usullarni tanlashga yo'l ochiladi.

Amaliy tadqiqot: ta'lim muassasalarida elektron qo'llanmalardan foydalanish jarayonini o'rganish va tahlil qilishga qaratilgan. Ushbu tadqiqot o'quvchi va o'qituvchilarning amaliy faoliyatini takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish hamda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini ko'tarish maqsadida olib boriladi. Ta'limdagi amaliy tadqiqotlar muayyan metod, uslub yoki elektron qo'llanmalarining samaradorligini real dars jarayonida sinovdan



o'tkazish va ularni takomillashtirishga xizmat qiladi hamda o'qituvchilarga o'z metodlarini baholash va yangilash imkonini beradi. Amaliy tadqiqotlar orqali o'qituvchilar o'z pedagogik mahoratini oshirib, o'quvchilar bilan samarali ishlash usullarini rivojlantirishlari mumkin. Shuningdek, ta'lim jarayoniga yangi uslublar, texnologiyalar va yondashuvlarni joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali o'qituvchilar o'z tajribalarini boyitib, ta'lim sifatini oshirishga erishadilar. Mazkur usul o'quv jarayonida nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatini yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktab ta'lim tizimida elektron qo'llanmalardan foydalanish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar bir qator muhim natijalarni ko'rsatadi. Ta'lim tizimida elektron qo'llanmalar qo'llanilishi ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Elektron qo'llanmalar raqamli formatda taqdim etilgan o'quv materiallari bo'lib, ular o'quvchilarning bilimlarni qiziqarli va qulay shaklda o'zlashtirishiga yordam beradi. Elektron qo'llanmalarda video, animatsiya, simulyatsiya kabi interaktiv elementlardan foydalaniladi, bu esa o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Masalan, matematik formulalarni tushunishni osonlashtiradi. Elektron qo'llanmalar yordamida o'quvchilar mustaqil ishlashga undaladi, ular materiallarni o'zlariga qulay vaqtda hamda mos tezlikda o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Jumladan, onlayn darsliklar yoki o'yin shaklidagi topshiriqlar o'quvchilarning bilimlarni mustaqil o'rganishini yanada osonlashtiradi. Elektron qo'llanmalar ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish, ularning darslarga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish va mustaqil o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, o'qituvchilar ham dars jarayonini interaktiv, qiziqarli va moslashuvchan tarzda tashkil etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Elektron qo'llanmalar an'anaviy darsliklar va qog'ozli materiallardan kamroq foydalanishga imkon yaratib, vaqt hamda resurslarni tejashga xizmat qiladi.

Elektron qo'llanmalar o'qituvchilar uchun ham bir qator qulayliklarni ta'minlaydi. Xususan, o'qituvchilar elektron qo'llanmalardan foydalanish orqali darslarni yanada samarali rejalashtirish va turli pedagogik metodlarni qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu holat o'quvchilarning individual ehtiyojlari va bilim darajalarini inobatga olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Dars jarayonida o'qituvchilar ko'proq vaqtni o'quvchilarning savollariga javob berish, ular bilan muhokamalar o'tkazish hamda o'quv materiallarini chuqurroq va mukammalroq o'rganishga yo'naltirish imkoniga ega bo'ladilar. Individual ta'lim usullari har bir o'quvchining qobiliyati, ehtiyojlari va qiziqishlariga mos shaxsiy yondashuvni anglatadi. Elektron qo'llanmalar yordamida o'qituvchilar o'quvchilarga ularning o'zlashtirish tezligiga moslashtirilgan ta'limni tashkil etish imkoniga ega bo'ladilar. Har bir o'quvchi o'z imkoniyatlari doirasida va individual tezlikda bilim olishi mumkin. Elektron qo'llanmalar mavzularni qayta ko'rib chiqish, qiyinchilik tug'dirayotgan tushunchalarni takrorlash yoki ularni o'zlashtirishga ko'proq vaqt ajratish imkonini beradi. Bu esa turli tezlikda o'qiyotgan o'quvchilar uchun samarali va moslashuvchan yondashuvni ta'minlaydi.

Masalan, matematika darslarida o'quvchilarga turli qiyinchilik darajasidagi masalalarni tanlash imkonini berish mumkin. Qiyinchilikka duch kelayotgan o'quvchilar uchun nisbatan sodda, yuqori qobiliyatli o'quvchilar uchun esa murakkabroq masalalar taklif etiladi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning bilim darajasini oshirishga va darslarga bo'lgan qiziqishini saqlab qolishga xizmat qiladi. Elektron qo'llanmalar o'quvchilarga mavzularni mustaqil o'rganish imkonini ham yaratadi. Masalan, onlayn darsliklar, videodarslar va interaktiv mashqlar orqali o'quvchilar mustaqil tarzda bilim olishlari mumkin. Bu esa ularda o'zini o'zi o'qitish, mustaqil izlanish va mas'uliyat hissini rivojlantirishga yordam beradi. Maktab va maktabgacha ta'lim sohalarida elektron qo'llanmalar qo'llanilishi hamma uchun foydali bo'lishi mumkinligi sababli, kreativ va zamonaviy texnologiyalarni o'rganish, darslarni o'zlashtirish jarayonlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan yangi ilmiy tadqiqotlar hamda ma'lumotlarning ko'payishi kutiladi. Xususan, yangi texnologiyalar o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishda kreativ va zamonaviy metodlarning ahamiyatini tasdiqlaydi. Ushbu tahlillar o'quvchilarda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qanday o'quv materiallari va dars shakllari samaraliroq ekanini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, tahlil va natijalar o'rganish jarayonlarini samarali tashkil etishda elektron qo'llanmalar o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada yengillashtirishini ko'rsatadi. Ushbu yo'nalishdagi tahlillar elektron qo'llanmalar ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini asoslab berib, ta'lim sohasidagi innovatsiyalarni o'rganishda muhim omillardan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ta'lim tizimining o'rta bo'g'ini bo'lmish maktab ta'lim tizimi jamiyatimiz rivojining asosiy bo'g'ini hisoblanadi. So'nggi yillarda respublikada elektron o'quv adabiyotlaridan foydalanishga mo'ljallangan axborot texnologiyalari vositalarini rivojlantirish, shuningdek, masofadan turib o'qitishni tashkil etish bo'yicha salmoqli ishlar olib borilmoqda. Shuningdek, maktab ta'lim tizimida elektron qo'llanmalardan foydalanish jarayoni zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylangan. Ushbu resurslar ta'lim jarayonini interaktiv, qiziqarli va samarali qilish



imkonini beradi, o'quvchilar uchun yanada qiziqarli o'qish muhitini yaratishga, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish va bilimlarini oshirishga xizmat qiladi. Biroq elektron qo'llanmalarning muvaffaqiyatli tatbiq etilishi uchun ta'lim muassasalari, o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish zarur.

O'qituvchilarni rivojlantirish muhim yo'nalishlardan biri bo'lib, ularga elektron resurslardan qanday foydalanishni o'rgatish darslarni yanada qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam beradi. Elektron qo'llanmalarning sifatini oshirish va ularni muntazam ravishda yangilab borish uchun moliyaviy hamda texnologik resurslarni jalb etish zarur. Ta'lim muassasalari zamonaviy texnologiyalarni o'z ichiga olgan yangi materiallarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratishlari lozim. Shuningdek, o'qituvchilarni yangi texnologiyalar va metodologiyalar bo'yicha o'qitish dasturlarini tashkil etish, ularni tayyorlash jarayonida amaliy mashg'ulotlarni kengaytirish o'quv jarayonida elektron resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiladi. Ota-onalarning ta'lim jarayonidagi ishtirokini kuchaytirish maqsadida onlayn platformalar va resurslar yaratish zarur bo'lib, ushbu platformalar orqali ota-onalar bolalarining o'qishini kuzatish va qo'llab-quvvatlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Isroilov A. "Gamifikatsiya va ta'lim jarayoni". Ta'limda innovatsiyalar, 2019-y. Tashkent State University of Economics.
2. Jabborov Oybek Aminovich, Turg'unboyev Mirzabek Rustambek o'g'li. "Ta'lim jarayonida elektron darsliklarning o'rni".
3. Yusupov D. "Zamonaviy ta'lim tizimlarida elektron qo'llanmalardan foydalanish". O'zbekiston Milliy Universiteti, 2021-y. Toshkent.
4. Shuxratovich, Qodirov Akbar, Choriyeva Xursanoy Xusanovna va Mirqobilov Bekzod Abdulla o'g'li. "O'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich ta'lim sinflarida informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda muammo, yechim va takliflar". Journal of New Century Innovations, 43(4), 2023, 96–98.
5. Qodirov Akbar Shuxratovich va Nomozova Muborak To'lqin qizi. "Masofaviy ta'limda raqamli texnologiyalarning istiqbolli asoslari". Academic Research in Educational Sciences, 4, CSPU Conference 1, 2023, 753–756.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.